



KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA BADIY ASAR SARLAVHALARINING ILGARI SURISH VAZIFALARI

Achilov Oybek Rustamovich

Chet tillar kafedrasi v.b.dotsenti, Toshkent davlat transport universiteti.
achilovoybek88@gmail.com (<https://orcid.org/0000-0002-9071-8678>)



Annotation

An'anaviy tilshunoslikdan farqli ravishda, kognitiv tilshunoslikda, ilgari surish vositalarining badiiy matn sarlavhalarida aks etishi va ulardagi o'ziga xos xususiyatlarni ifodalanishi, vazifalari tadqiqotimizda aniqlanadi.

Kalit so'zlar: konvergensiya, ilgari surish, deviatsiya, parallel shakl, kognitiv tilshunoslik, lingvostilistika

Hozirgi vaqtda sarlavhalarning vazifalari va mohiyati, jumladan, badiiy asarlardagi vazifalari ancha chuqur o'rganilgan.

O'zbek tilidagi badiiy asarlarga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asari sarlavhasida mubolag'a, jonlantirish vositalrining belgari ko'rinsa, "Dunyoning ishlari", "Nur borki, soya bor", "Ikki eshik orasi" asari sarlavhalarida parallel struktura va qarshilantirish vositalaridan foydalanilgan [1]. "Tushda kechgan umrlar" sarlavhadan yashirin o'xshatish, tasviriy ifoda va parallel strukturadan o'zaro makonlar aro sayohat kabi vositalar badiiy matn voqealikni hayot haqiqatiga omixta qilib, asar qahramonlarining ichki olamini har tomonlama mukammal, to'g'ri va aniq tasvirlash, unga o'quvchini ishontira bilish adib ijodining asosiy suyanadigan nuqtasi hisoblanadi.

"O'ylar" rukni ostida qalamga olingan mavzularda esa satira, kulgiga olish vositalari orqali adib tomonidan, insof, andisha, uvol kabi insonga xos odob-axloq, ma'naviy olam, milliy qadriyatlar, sho'ro davri adolatsizliklari dadil yoritilgan va mavzular har bir vijdoni uyg'oq insonni bahsga chorlaydi.

Shukur Xolmirzayevning, "O'n sakkizga kirmagan kim bor" sarlavhasida ritorik so'roq gap vositasi orqali mazmun bo'yoqdorligiga erishib, badiiy asarda haqqoniy hayotni aks ettirishga harakat qiladi. Shuning uchun ham o'quvchi unda o'zini o'n sakkiz yosh damlarini topadi, o'zining qalbidagi tuyg'ular aksini ko'radi,



hayajonlanadi, quvonadi, yig‘laydi, iztirobga tushadi. Bir so‘z bilan aytganda, asar qahramonlari bilan yashaydi. Taniqli yozuvchi Shukur Xolmirzayevning ushbu qissasi avlodlar qismatiga, aniqrog‘i o‘z avlod – tengqurlari hayotiga bag‘ishlangan bo‘lib, voqelik ilk muhabbat iztiroblari tarixida tasvirlanadi. O‘quvchi qalbiga ana shu tarzda kirib boradi [2].

Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asari sarlavhasida ohangdorlik, jlonlantirish, ular bilan muloqotga kirishish evaziga qissa alohida e’tiborni tortadi. Bir qarashda Ziyodilla to‘pori qiyofasida gavdalansa, biroq qalb qiyofasi bilan kitobxonni o‘ziga tortadi. Tog‘ay Murodning ushbu qissasi she’rday o‘qiladi, katta bir asardek taassurot qoldiradi. “Oti bor odamning qanoti bor” deydi yozuvchi. Yozuvchining badiiy mahorati, jonivor bilan o‘zaro suhbatlashuv uslubi ushbu qissasi oxirigacha sizni o‘zidan uzoqlashtirmaydi va she’rday o‘qiladi. Nihoyat buning azobini ham tortadi. Akademik A.Saxarov “Jamiyatni faqat ma’naviy zaminlarga suyanib yuksaltirish mumkin” degandi. Birovning shodligi bilan quvonib, kulfati bilan qayg‘u chekadigan Ziyodillaga o‘xshagan ma’naviyati boy kishilar kamayib borayotganiga asarni o‘qib yana bir bor amin bo‘lasiz.

Taniqli yozuvchi Luqmon Bo‘rixon. “Quyosh hali botmagan” sarlavhali qissasida leksik deviatsion vosita “–ma” inkor etish qo‘srimchasi orqali hali vaqt yetib kelmadidi deb, leksik deviatsiya vositasi orqali yoshlarning turfa sarguzashtlari, hayot so‘qmoqlarida duch kelgan sinovlari, jasorat, mardlik va muhabbat mojarolaridan hikoya qiladi. Qissani mutolaa qilar ekansiz, beixtiyor bolalik va o‘spirinlik paytlaringiz yodingizda qayta jonlanadi. Norsoatning Tanzilaga bo‘lgan ilk muhabbati yuragingizda ajabtovur xotiralarni uyg‘otadi. Qizga yuragidagi otashin sevgisini izhor etmoqqa ma’shuq uchun naq besh yil ketdi. Qiz bechora biringa shu so‘zni qanchalar intiqib kutmadi, deysiz. Shu o‘rinda siz Davronni ham yoqtirib qolasiz. Uning qaysarligi, dangalligi, mardligi va metin irodasiga qoyil qolasiz. Uning ba’zida haddan oshirib yuborgan xurmacha qiliqlari ham o‘ziga qanchalik yarashgan. Shu qiliqlari bo‘lmasa, obraz to‘laqonli chiqmas edi.

Erkin Vohidovning, “Qiziquvchan matmusa” she’rlardagi yengil kulgi, til jozibasi, tiniq kayfiyat e’tiboringizni tortadi, xalqona tilda yozilgan she’r sarlavhasini boshqa millat vakili ilk nazar tashlaganida matmusa so‘zining semantik xususiyatini tushunmaydi. Buni faqat kognitiv tushunchaga ,tub tarixiy bilimga ega bo‘lgan

ushbu millat vakiligina tushuna oladi. Azaldan matmusa kulgu va hajv timsoli misolida gavdalangan, demak asar sarlavhasida ramz, obraz, satira, kabi stilistik vositalar yordamida badiiy effekt ilgari surilgan [3].

Anvar Obidjon, “Meshpolvonning janglari” sarguzasht-doston yo’sinida yozilgan ushbu qissasi ozodlik haqida, ozodlik, chin hurriyat yo‘lida yo‘lga otlangan vatanparvar bolalar haqidadir. Unda o’tmish va kelajak, tarix va taqdirlar erk va ozodlik motivlari o‘zaro tutashib ketadi. Meshpolvonning ozodlik yo‘lidagi qahramonliklari bir qarashda Alpomishning bahodirliklarini esga tushiradi. Asar xalqona tilda yozilgani, qahramonliklar bolalarga yoqadigan yo‘sinda tasvirlangani bilan e’tiborni tortadi. Demak Meshpolvon yoki To‘maris, yoki boshqa milliylikni yorituvchi obrazlar orqali tasvirlangan sarlavahalar o‘zida asardan asarga ko‘chuvchi obraz va nomlarni jamlab, milliy koloridni taqdim etadi.

Mirkarim Osimning, “To‘maris” o‘zbek xalqining qadimiy afsonalaridan biri. U mardlik, qahramonlik timsoli. Unda haqiqatning, adolatning, mardlik va jasurlikning makr, hiyla va yovuzlik ustidan qilgan g‘alabasi eroniylar va massagetlar o‘rtasidagi jang misolida ochib berilgan.

Xullas, Istiqlol davrida yangilangan badiiy tafakkur Erkin A’zamning “Stupka”, Xurshid Do‘stmuhhammadning “Qichqiriq”, Nazar Eshonqulning “Bahouddinning iti”, Rahimjon Rahmatning “Adashvoy”, Isajon Sultonning “Suvdagi kosa”, Ulug‘bek Hamdamning “Bir piyola suv” kabi hikoyalarini berdi.

M. Karimning “Hech” deb nomlangan qissasi hamma narsa va ayni damda, hech narsa haqidadir. X. Do‘stmuhammad, N. Eshonqul va I. Sulton kabi yozuvchilar ijodidagi qator asarlarda (“Sizif”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Go‘ro‘g‘li”, “Og‘riq muojalasi”, “Boqiy darbadar”) jahon adabiyotidagi birmuncha mashhur asarlar syujet, syujet chiziqlari yoki g‘oyasi olinib, qayta ishlanadi. Yana bir o‘zbek adabiyoti namunasi “Yolg‘izlik” qissasida esa qahramon ruhiyati batamom parchalangan holda tasvir etiladi. U shu holida ortidan ergashish mumkin bo‘lgan na biron g‘oya, na dardiga hamdard bo‘lgulik biron inson topolmay arosatda tentiraydi. Hatto qissaning syujetida butunlik yo‘q, u toshga urilib parchalangan oyna bo‘laklariga o‘xshaydi. (Voqealarni ana shu sinqlarda ro‘rishingiz mumkin). Najotni hech qayerdan topolmagan qahramon, alaloqibat, o‘z ruhiy olamiga hisb etiladi. Shunday bo‘lsa-da, asar oxirida qahramon o‘tirgan xona eshigi ochiq qoladi.





Bu – ramz. Qissaning ismsiz qahramoni bugungi tafakkur ahlining o‘ziga xos umumlashtiruvchi obrazidek taassurot qoldiradi[4,5].

She'rlarning muhim qismida sarlavhalarning mavjudligi potentsial o‘quvchiga konsentrangan shaklda she'riy asarning asosiy g‘oyasi yoki mavzusini taqdim etish va shu bilan uni tushunishga qaratilgan kommunikativ niyatidan dalolat beradi. Ushbu jarayoni toliq tushunish butun matnning mazmuni bilan tanishgandan keyingina amalgalashish mumkin.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘rib chiqilayotgan badiiy matnlarning nomlari sotsial-madaniy, sotsiolingvistik sharhni talab qiladimi yoki yo‘qligiga qarab ikki guruhga bo‘linadi[6].

1) izoh talab qilmaydigan sarlavhalar. Ushbu sarlavhalar ingliz yoki o‘zbek tilidagi barcha ona tilida so‘zlashuvchilarga tushunarli, chunki ular umumiyligi xalq lug‘atidan foydalananish orqali shakllanadi. Misol tariqasida ingliz badiiy asarlaridan: “*Qo‘rg‘on*”, “*Qishloq*”, “*Ayiq*”, “*Sahro*”, “*O‘lim to‘shagida*”, “*Rohibaga marsiya*”, “*Hikoyalar majmuasi*” larni sanab o‘tsak, o‘zbek tilidan: “*Quyosh hali botmagan*”, “*O‘n sakkizga kirmagan kim bor*”, “*Shamolni tutib bo‘lmaydi*” kabi bir qancha asarlarni sarlavhalarini sanab o‘tishimiz mumkin.

2) sarlavha-lakuna. “Lakuna” atamasi ostida I.Yu. Markovich va Yu.A. Sorokinlar quyidagi fikrni bildirishgan: “matnda qayd etilgan va chet ellik madaniy qabul qiluvchiga matnning tegishli qismini tushunishni qiyinlashtiradigan ma’lum bir madaniyatning milliy o‘ziga xosligining u yoki bu elementini tushunamiz”.

Ushbu turdagagi sarlavhalar tahlil qilinayotgan badiiy matn to‘plamlaridagi barcha nomlarning ichida umumiyligi sonining oz qismini tashkil etishiga qaramay, bu xilmoxil hodisadir.

Quyidagi turdagagi sarlavha-lakunalar ajralib turadi:

- a) xorijiy nomlar. Bu turdagagi sarlavha lakunalaridan foydalananishning bir qancha holat qayd etilgan: “*Sartoris*”, “*Avessalom, Avessalom*”, “*Uliss*”-ingliz asarlari bo‘lsa, “*Sizif*”, “*Stupka*”-o‘zbek asarlariga qo‘yilgan sarlavhalarga misol bo‘la oladi.
- b) xorijiy madaniy komponentni o‘z ichiga olgan sarlavhalar. Masalan: “*Jonatan Livingston nomli chayka*”, “*Attashe*”, “*Deptfor trilogiyasi*” ingliz sarlavhalarining yorqin misolari qatoriga qo‘sha olamiz. O‘zbek badiiy matnlarida bu holat uchramaydi.



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th December, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

c) ingliz yoki o'zbek madaniyatining milliy xususiyatlarini, xususan uning tarixiy o'tmishini aks ettiruvchi sarlavhalar: "Jenni Gerhardt", "Amerika fojiasi", "Baxtiqaro Kerri" ingliz asarlaridan bo'lsa, "To 'maris", "Go 'ro 'g 'li", "Meshpolvonning janglari" o'zbek badiiy asarlariga misol bo'ladi.

References

1. <https://audiobook.edu.uz/album/9/otkir-hoshimov/dunyoning-ishlari>
2. <https://kitobxon.com/oz/kitob/on-sakkizga-kirmagan-kim-bor>.
3. Кощеева, Г.В. Дискурсивный анализ типа текста «передовая политическая статья» [Текст]: автореф. дис. ... канд. филолог, наук: 10.02.19 /Г.В. Кощеева; Московский городской педагогический университет. - М., 2001. - 26 с.;
4. Lamzina, A.V. Zaglavie literaturnogo proizvedeniya // Russkaya slovesnostj. - 1997. - № 3. 16.
5. Jurij Lotman and the Semiotics of Culture, Volume 5, Issue 1, 1972, Pages 41-53
6. Васильева Т. Б. Когнитивные механизмы формирования и функционирования заголовка / Вестник Московского университета. - 2006. - №1. - С. 154-171.